

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**



**«Klinik fanlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarni oʻrni, Tibbiyot kasbiga kirish fanidan "MOODLE" va boshqa LMS tizimlarni oʻquv jarayoniga tadbiiq etish» mavzusida**

**Xalq tabobati fakulteti talabalari uchun**

**Oʻquv-uslubiy qoʻllanma**

Sharipov U.A.

TOSHKENT- 2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**  
**TIBBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI**

«TASDIQLAYMAN»

O‘zR SSV Fan va ta‘lim bosh  
boshqarmasi boshlig‘i

\_\_\_\_\_ A.T.Maxmudov

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2022 yil

Bayonnoma № \_\_\_\_\_

«TASDIQLAYMAN»

O‘zR SSV Tibbiy ta‘limni  
rivojlantirish markazi Direktori

\_\_\_\_\_ N.R.Yangieva

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2022 yil

Bayonnoma № \_\_\_\_\_

**TALABALAR VA O‘QITUVCHILARGA UCHUN TAYYORLANGAN**  
**O‘QUV USLUBIY QO‘LLANMA**

**KLINIK FANLARDA AXBOROT KOMUNIKATSIYA**  
**TEXNOLOGIYALARNI O‘RNI, TIBBIYOT KASBIGA KIRISH FANIDAN**  
**"MOODLE" VA BOSHQA LMS TIZIMLARNI O‘QUV JARAYONIGA**  
**TADBIQ ETISH» MAVZUSIDA**

**Xalq tabobati fakulteti talabalari uchun**

**O‘quv-uslubiy qo‘llanma**

**Toshkent - 2022**

**Tuzuvchilar:**

**Sharipov U.A.**

TTA "Xalq tibbiyoti, reabilitologiya va jismoniy tarbiya" kafedrasida assistenti

**Taqrizchilar:**

**Vysogortseva O.N.**

TTA Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedrasida dotsenti, t.f.d.

**Mirraximov J. A.**

O'zbekiston Respublikasi SSV "Respublika Xalq tabobati" ilmiy-amaliy markazi, direktori

60911100 "Xalq tabobati" yo'nalishi talabalari uchun kafedra xodimlari tomonidan yozilgan "Tibbiyot kasbiga kirish" mavzusidagi o'quv-uslubiy qo'llanma kafedra yig'ilishida muhokama qilingan. Majlislar bayoni № 9-сонли 24.12.2022 yil.

O'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Markaziy uslubiy hay'ati" tomonidan ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

Majlislar bayoni №\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ 2022 yil

O'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Ilmiy kengash" tomonidan ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

Majlislar bayoni №\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ 2022 yil

**Ilmiy kotib, professor**

**G.A.Ismailova**

## Annotatsiya

O'quv-uslubiy qo'llanmada o'quv jarayoniga kompyuter uskunalari va axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish, ta'limning axborot resurslarini shakllantirish, masofadan o'qitish tizimlarini joriy etish, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida ma'lumot almashish, ushbu vazifalarni amalga oshirish, oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayoni sifatini oshirishga, o'qituvchilar va talabalar, kafedra hodimlari kompyuter savodxonligini oshirishga yordam beradi.

O'quv-uslubiy qo'llanma Davlat ta'lim standartiga muvofiq ushbu fan bo'yicha o'quv rejasi asosida tuzilgan.

Tibbiyot universitetlari o'qituvchilari va talabalari, tegishli mutaxassisliklar bo'yicha ishlash va qo'llash mumkin.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	7
<b>I – BOB. Tibbiyot kasbiga kirish fanida masofaviy ta'lim texnologiyalari.</b>	
1.1. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishning ayrim jihatlari.....	9
1.2. Tibbiyot kasbiga kirish fanida o'quv jarayonini tashkil etishning zamonoviy uslublari, multimedia va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonlariga tadbiq etish.....	11
1.3. Modulli o'qitishdan foydalanishning ahamiyati.....	15
<b>II – BOB. Tibbiyot kasbiga kirish fanidan elektron o'quv moduli ishlanmasi</b>	
2.1. O'quv fani dasturining qisqacha tavsifi. Silabus. ....	19
2.2. Tibbiyot kasbiga kirish kursi modul bo'yicha fan yuzasidan o'quv resurs va elementlari joylashish, topshiriqlar va amaliy ko'nikmalar.....	28
2.3. Nazorat topshiriqlar va mustaqil ta'lim yuzasidan ko'rsatmalar .....	37
2.4. Fan yuzasidan taqdimotlar.....	42
2.5. Xulosa va tavsiyalar.....	47
Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari.....	50

## **QISQARTIRILGAN SO'ZLAR RO'YXATI**

**TTA – Toshkent tibbiyot akademiyasi**

**TKK - Tibbiyot kasbiga kirish**

**AKT - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari**

**CASE - Real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida o'quv  
keysi**

**ARM -. Axborot resurs markazi**

**JN - Joriy nazorat**

**YaN - - Yakuniy nazorat**

## KIRISH

### **Tibbiyot kasbiga kirish (TKK) fanini o‘qitishda modulli yondashuvning aktualligi.**

Hozirgi vaqtda fan taraqqiyoti va u bilan birgalikda texnika taraqqiyoti jadal rivojlanmoqda. Ta'lim sohasining rivoji nafaqat Respublikamiz miqyosida, balki jahon miqyosida o‘zaro aloqalarni mustahkamlash orqali mukammallashtirishi lozimligi bugungi kunning talabiga aylandi.

Fan va texnika yutuqlarini ta'lim tizimida uzluksiz qo‘llash o‘qitish usullarining sifatini va samaradorligini oshirishni takomillashtiradi. Ta'lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikasion texnologiyalaridan foydalanishga bo‘lgan talablar yildan-yilga ortib bormoqda.

TTA Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedarisida xalq tabobati 1-bosqich talabalariga Tibbiyot kasbiga kirish fanidan ma'ruza va amaliy mashg‘ulot darslari olib boriladi. Bakalavriatura bosqichida Tibbiyot kasbiga kirish fanini o‘qitishning asosiy maqsadi bo‘lajak tibbiy faoliyatda, xususan xalq tabobati shifokorlarning faoliyatida bemorlarni ana'naviy usullar bilan tashxisot, davolash, kasalliklarni oldini olish bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq masalalar yuzasidan tegishli bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishdir. Xalq tabobatini asosiy yo‘nalishlari tarixiy manbalarga asoslanib ilmiy yondoshgan holatda tushunchalar berish, an'anaviy tabobatni zamonaviy tibbiyot yutuqlari bilan integrasiyasini erishish zarur. O‘qitish jarayonining samaradorligi o‘qituvchilarning bir tomondan soha bo‘yicha kasbiy tayyorgarligi, ikkinchi tomondan ularning pedagogik mahorati bilan bog‘liq. So‘ngi yillarda tibbiy ta'lim tizimida yangi ilg‘or, innovasion pedagogik texnologiyalarni joriy qilishga katta e'tibor berilmoqda. Binobarin qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar o‘quv mashg‘ulotining mazmun-mohiyatiga mos kelishi zarurligi shubhasiz. Chunki texnologik usullarni tasodifiy tarzda qo‘llash nafaqat samarasiz, ba'zan esa o‘quv mashg‘ulotlariga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

## **1.1. Tibbiyot kasbiga kirish fanida masofaviy ta'lim texnologiyalari.**

### **AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN O'QUV JARAYONIDA FOYDALANISHNING AYRIM JIHALARI**

Ma'lumki, oliy ta'limda o'qitish metodlarini qo'llashda o'quv jarayonining hususiyatlariga va talabalarning bilim olish faoliyatiga hamda talabalarning shaxsiy tayyorgarlik darajasiga katta ahamiyat beriladi. Talabalarning faol ijodiy bilish faoliyati, ularning mustaqil ta'limdan iborat o'quv jarayoni ikki guruhga bo'linadi: o'qitish metodlari va o'rganish metodlari.

O'qitish metodlari bilimlarni berish usuli sifatida talabalarning ilmiy bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamda o'quv jarayonida pedagogning talabalarga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bo'ladi. O'rganish metodlari esa ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida, talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarni ijodiy egallashiga qaratilgan bo'ladi.

Ayniqsa, bugungi kundagi taraqqiyotning juda tez rivojlanishini va sodir bo'layotgan o'zgarishlarni hisobga olsak, bizning har bir kunimiz kuchli axborot oqimi ta'siri ostida o'tmoqda. Hayotni anglash va o'rganish katta hajmdagi axborotlarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechmoqda. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanmoqda.

Shuning uchun zamonaviy bilimlarni egallashda va takomillashtirishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish – bugungi kunning talabiga aylandi. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasining "ta'lim to'g'risida"gi qonuni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) oid qonunlar, Prezident qarorlari va farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari zimmamizga shu mas'uliyatni yuklaydi.

Respublikamizning barcha sohalaridagi kabi ta'lim sohasida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. O'quv jarayonidagi nazariy, amaliy, shu jumladan laboratoriya mashg'ulotlarni hamda mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda AKTdan keng foydalanilmoqda.



Mashg'ulot turlariga ko'ra barcha manbalar (o'quv darsliklar va qo'llanmalar, ma'ruzalar matnlari, test savollari namunalari, amaliy va laboratoriya ishlari topshiriqlari, baholash mezonlari va to'plash kerak bo'lgan hamda joriy vaqtda to'plagan ballar miqdori haqida ma'lumot) axborotlar xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda, elektron ko'rinishda axborot resurs markazining server-kompyuterlariga joylashtirilmoqda va kafedra xodimlari muntazam ravishda to'ldirilmoqda va yangilanmoqda

#### **AKTdan o'quv jarayonida foydalanishdan asosiy maqsad:**

- fanlar bo'yicha kalendar rejada belgilangan hajmda axborot resurslarini ishlab chiqish va ulardan samarali hamda maqsadli foydalanish;
- talabalarga kerakli axborotni kerakli vaqtda olish va o'z vaqtida taqdim etish imkonini beruvchi axboriy-texnikaviy muhitni yaratishdan iborat.

Xususan, Toshkent tibbiyot akademiyasi "Tibbiyot kasbiga kirish" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda talabalar tomonidan topshiriqlarning bajarilishi holatini nazorat qilish uchun "Moodle @TTA", On-Line rejimida bevosita dars jarayonini boshqarish imkonini beruvchi dasturlaridan hamda Internet xizmatlari va resurslaridan foydalanilmoqda.

#### **Aktidan o'quv jarayonida foydalanishning talabalar uchun afzalliklari:**

- talaba o'ziga qulay vaqtda o'qib o'rganishini rejalashtirish va o'zlashtirishi mumkin;
- o'zlashtirilishi kerak bo'lgan mavzular hajmini va muddatini oldindan bilishi;
- reyting ballar taqsimotiga asosan etarli to'plash kerak bo'lgan hamda joriy vaqtda to'plagan ballar miqdori haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- nazariy bilimlarni olish uchun ma'ruza matnlari va test savollari namunalarining mavjudligi;
- amaliy topshiriqlarining bajarish texnologiyalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga mustaqil ega bo'lish uchun uslubiy ko'rsatmalar namunalarining va turli boshqa qulayliklarning mavjudligi.

Hozirgi kunda respublikamiz ta'lim tizimida aynan yuqorida qayd etilgan afzalliklarning mavjudligi tufayli dunyoda keng tarqalgan masofadan o'qitish texnologiyasi uslubiy materiallari ayrim fanlarni o'qitishda foydalanilmoqda va yaxshi natijalar bermoqda.

Ma'lumki, masofadan o'qitish uslubi – bu o'qishning o'ziga xos yangi shakli sifatida ko'pgina rivojlangan davlatlarda mutaxassislarning malakasini oshirishda va qayta tayyorlashda keng foydalanilmoqda. Natijada yiliga katta miqdordagi mablag'lar tejamoqdalar. Masofadan o'qitish bu mustaqil o'qish turi sifatida insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu sababli xususan, TTAda mustaqil ta'limni tashkil qilishda masofadan o'qitish texnologiyasi elementlaridan foydalanilmoqda. Bu esa talabalarning bilim va ko'nikmalarga mustaqil egallashda yaxshi natijalarni berishi kutilmoqda.

## **1.2. Tibbiyot kasbiga kirish fanida o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonoviy uslublari, multimedia va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonlariga tadbiq etish.**

2021-2022 o‘quv yilida 1- kurs semestrini Tibbiyot kasbiga kirish fani uchun mo‘ljallangan o‘quv soatlariga asoslanib ta'lim yo‘nalishi - 60911100 “Xalq tabobati”, o‘quv soatlari xajmi: jami -72 soat, ma'ruza 4, amaliy mashg‘ulot 50, mustaqil ta'lim 18. Klinik modullar blokida joylashadi. Modul o‘tilish davri: 1 semestr va davomiyligi 18 hafta. Shundan kelib chiqqan holda qayd etilgan fakultetlar uchun ma'ruza, amaliy mashg‘ulotlar hamda mustaqil ish mavzulari tasdiqlandi. Xususan, kunlik o‘quv mashg‘ulotlari jadvali tuzilib, kafedra majlisida ushbu mashg‘ulotlarda qo‘llanishi maqsadga muvofiq bo‘lgan yangi pedagogik majmuasi belgilandi. Ta'kidlash lozimki, konkret o‘quv mashg‘uloti uchun tegishli pedagogik texnologiyaning turini tanlash va uni qo‘llash o‘qituvchining ma'lum bir kasbiy maxoratini namoyon etadi. Kafedra o‘qituvchisi ushbu soxadagi tibbiy amaliyot holati va muammolaridan xabardor bo‘lishi lozim.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda har bir o‘quv mashg‘uloti uchun kafedra tomonidan tavsiya etilgan yangi elektron o‘quv moduli tuzildi. Konkret usullardan foydalanish har bir o‘qituvchi tomonidan xal qilinadi. Kafedrada tasdiqlan ishchi dasturga asosan ishlab chiqilgan o‘quv majmualarga asoslanib har bir o‘qituvchi uchun o‘qitish texnologiyalari blokini elektron tizimi yaratilmoqda, masofaviy o‘qitish asoslari yaratilmoqda.

Kafedradaning barcha o‘quv xonalari kompyuterlar bilan ta'minlangan. Jumladan 6 ta kompyuter Internet tarmog‘iga ulangan. Dars mobaynida talabalarga mavzuga oid video-filmlar, videoroliklar, animatsiyalar, test savollari, vaziyatli masalalarning elektron shakli bilan mustaqil ishlash imkoniyati mavjud. Bundan tashqari Internet tizimi orqali talabalar internet tarmog‘idan foydalanib dars jarayonidagi mustaqil ishlarni bajarish imkoniyatiga egadir.

Dars jarayoniga bunday yondoshish o‘qituvchiga va talabaga vaqtdan unumli foydalanish imkonini kengaytirmoqda.

O'quv xonalaridagi komyuterlarga kafedraning o'quv faoliyatiga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlar, xususan o'quv-uslubiy majmua, kalendar tematik reja, yagona metodik tizimlar, ma'ruzalarning elektron shakli, amaliy mashg'ulotlar uchun audio - va video qo'llanmalar, multimedialar, amaliy ko'nikmalar to'plami boshqalarning elektron shakli joylashtirilgan.

Alohida ta'kidlash lozimki, dars jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish talabalarga mustaqil ishlash imkoniyatini yaratib bermoqda. Talabalar amaliy mashg'ulot darsida mavzuga oid klaster, piramida va shu kabi pedagogik texnologiyalarning chizmalarini, test savollari, vaziyatli masalalar tuzishni bevosita kompyuterda amalga oshiradilar.

Maruzalar o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, amaliy mashg'ulotlarning to'ldiruvchi va foydali qismi hisoblanadi. Shularga qaramasdan hamma talabalar va har doim ham ma'ruzalarga qiziqish bildirmaydilar. Ammo lekin tajribalar ko'rsatmoqdaki, talabalarda klinik fanlarga bo'lgan ma'suliyat va ularni bilishi zarurligini xis kilishni, aynan ma'ruzalarda beriladigan bilim beradi. Shulardan kelib chiqib, biz quyidagi tajribalarni qo'llashni taklif etmoqchi edik. Talabalarimizga navbatdagi bo'ladigan ma'ruzani 3-4 kun oldin kafedrada saytida shu maruzalarda ko'rib o'tiladigan mavzu va savollar ko'rib chiqishi va talabalar ma'ruza daftarlariga maruzada ko'rib o'tiladigan mavzu va savollarni yozib olishadi va bu savollar albatta YaN savollarida ham bo'lishi izoxlarda ko'rsatilib qo'yiladi. Talabalar savollarni ko'rib chiqishar ekan, beixtiyor bu savollarga javob topishga kirishadilar va bu savollarga javob izlab ma'ruzaga borishga majbur bo'ladilar. Savollarni ma'ruzachilar tuzadi, o'z-o'zidan ma'lumki, bu savollarning ko'pchiligida darsliklarda javob yo'q. Yuqorida aytib o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, bo'lajak shifokor fanning umum nazariy qismlarini, tuzilish qonuniyatlarini bilishlari va ularni to'ldira olishlari zarur. Buning muhimligi shundaki, bu talabalarda birlamchi klinik fikrlashni rivojlantiradi. Bo'lajak shifokor bilimlar va klinik xolatlarni bir-biri bilan bog'lash qanchalik erta boshlansa, shunchalik foydali buladi.

Pedagogik ta'lim muassasasining zamonaviy axborot texnologiyalari muhitini yaratish ob'ektiv zaruriyat ekanligi asoslandi, uni ishlab chiqishning metodik asoslari yaratildi va tarkibiy qismlari shakllantirildi. Ta'limni axborotlashtirishning bosh maqsadi etib ta'limda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash asosida, mutaxassisning kasbiy faoliyatini takomillashtirish va jamiyat talablariga munosib yangi dunyoviy tafakkurga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashning sifati va samaradorligini keskin ko'tarish zaruriyati belgilab olindi. Mamlakatimiz o'quv yurtlariga kirib kelayotgan zamonaviy kompyuterlardan foydalanish elektron darsliklar yaratish, dars jarayonlarini virtuallashtirish, o'qitishda virtual va multivositallardan foydalanish, ta'limning virtual bazasini yaratish kabi vazifalarni qo'ymoqda. Komp'yuter vositalaridan biri bo'lgan multimediyali prezentasiyalarning ko'llanilishi dars samaradorligini oshirishning yana bir omili bo'lib xizmat qiladi. Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalasidir. Mul'timedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishni mujassamlangan holdagi ko'rinishidir. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida talabalarni o'qitish ikki barobar unumli va vaqtdan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30%gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saklash 25-30% oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan xolda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75% ortad.

Multimedia vositalari asosida talabalarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

a) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

b) ta'lim olishning yangi soxalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi:

c) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

d) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Multimedyaning qulayligi shundaki, tanlangan mavzu buyicha tayyorgarligi bo'lmagan talabada ham aniq bilim va ko'nikmalarni yarata oladi, hamda unutilgan bilimlarni qayta tiklaydi va ma'lumotlarning uzoq muddat xotirada qolishi va mustaxkamlanishi tasdiqlangan.

Bo'lajak shifokorlar uchun bunday ma'lumotlarni xotiraga o'chmas qilib joylashtirish usuli bebaxo va dolzarbdir. Shuning uchun tibbiyot oliygohlarida ham amaliy ham ma'ruza darslarida multimedialarni qo'llash keng yo'lga qo'yilgan. Biroq, amaliyot darslarida qo'llaniladigan multimedialar ma'ruza darslarida qo'llaniladigan multimedialardan keskin farq qilishi zarur, chunki ma'ruzalardan maqsad: mavzuning asosiy qismlari haqidagi umumiy ma'lumotlarni yetkazish va ma'lumotlar bazasiga tinglovchini yo'naltirish bo'lsa, amaliyot darslarida mavzu mayda qismlarga bo'linib, chuqur o'rganilishi va o'zlashtirilishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun amaliy darslarda qo'llaniladigan multimedialar uzoqroq vaqtga mo'ljallangan hamda rasm, jadval, sxemalardan tashqari, filmlar bilan boyitilgan bo'lishi maqsadga muvofiq.

### **1.3. MODULLI O‘QITISHDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Modellashtirish bu tanlab olingan ob'yekt xususiyatlarini iloji boricha to‘liq boshqa satxga yoki ko‘rinishga ko‘chirishga aytiladi. Shuningdek, ob'yekt tuzilishini, xususiyatlarini, o‘zaro bog‘liqliklarini hamda vazifalarini ko‘rsatuvchi elementlar tizimiga model deb aytaladi.

"Modulli o‘qitish" termini xalqaro tushuncha bo‘lib, uning birinchi ma'nosi - faoliyat ko‘rsata oladigan uzaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildirsa, ikkinchidan esa, u tugallangan informatsiya bloki sifatida tushuniladi.

Modulli o‘qitish asosan inson bosh miyasi tuzimlarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi. Inson miyasi ham modulli tugunlardan tashkil topgan bo‘lib, axborotlar ana shu modullarda asosiasiyalashadi.

Modulli o‘qitish texnologiyasi - funktsional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologik, pedagogik va psixologik umumiy nazariyalardan kelib chiqadi. Bu soxadagi izlanishlarga ko‘ra, modulli tizim asosida tuzilgan inson miyasi axborotni kvant ko‘rinishida (ya'ni kichik portsiyalar ko‘rinishida) yaxshiroq qabul qiladi.

Fanda modul asosida mutaxassislar tayyorlashning bir qator kontsepsiyalari ishlab chiqilgan. Ushbu kontsepsiyalar zamirida faoliyatli yondoshuv tamoyili yotadi va bu nuqtai nazardan, o‘qitish jarayoni to‘laligicha yoki muayyan fan doirasida, modulli ta'lim dasturi mazmuniga muvofiq kasbiy faoliyat elementlarini talaba tomonidan ketma-ket o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Turli kontsepsiyalar doirasida, modulli ta'lim dasturlari turli xil tarkibiy tuzilmalardan iborat buladi, ammo ularning barchasi quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismni majburiy ravishda o‘z ichiga oladi:

1. Maqsadli mazmuniy dastur.
2. Turli ko‘rinishlarda taqdim etilgan axborotlar banki.
3. Talabalar uchun uslubiy ko‘rsatmalar.

Shunday qilib, modulli o'qitish-o'quv jarayonini tashkil etishning bir shakli bo'lib, unda o'qitishdagi o'quv materiallarining mantiqan tugallangan birliklari, ya'ni modullarni bosqichlar va qadamlar bo'yicha o'zlashtirishni anglatadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va shu asosda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan qaraganda ta'lim berishning faollashtiruvchi shakllaridan biri bo'lmish modulli o'qitishni kadrlarni tayyorlash kurslariga joriy etish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Chunki, bu kurslarda ta'lim oluvchi tinglovchilar sohaviy fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarini mustaqil o'qib, o'rgana olishlari mumkin.

Biz bu haqda mulohaza yuritib, modulli o'qitish nima, u an'anaviy dars turlaridan nimasi bilan farqlanadi degan savolga javob beraylik. Ma'lumki, an'anaviy dars turlarida ta'lim-tarbiya jarayoni markazida o'qituvchi turadi. U o'quv materialini tushuntiradi, so'raydi va baholaydi. Tinglovchilar esa o'qitish jarayonining sust ishtirokchisi bo'lib, ular o'qituvchi tushuntirishini eshitadilar va uning savollariga javob berish bilan kifoyalanadilar.

Modulli o'qitishda esa tinglovchilar mustaqil ravishda bilim, o'quv, ko'nikma, malaka egallash bilan birga o'z faoliyatlarini baholash darajasigacha ko'tariladilar.

Modulli o'qitishning ijrochisi tinglovchi hisoblanadi. O'qituvchi bunda ta'lim olishning tashkilotchisi, tinglovchining yordamchisi sifatida qatnashadi.

Mazkur kurslardagi modulli o'qitishda o'qituvchining ko'pgina funktsiyalari tinglovchilarga o'tadi. Tashkilotchi sifatida o'qituvchining funktsiyasi avval modulli o'qitish dasturini yaratishda namoyon bo'ladi. Modulli o'qitishni amalga oshirish uchun bunday dasturlar tinglovchilarga oldindan tarqatilishi kerak.



Modulli o'qitishni rejali mavzular yoki boblar bo'yicha olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Modulli o'qitishni tashkil etish odatda texnologik karta tuzishdan boshlanadi. Unda tinglovchilar faoliyatining maqsadi aniq ko'rsatiladi.

Modulli o'qitishning birinchi bosqichida maqsadga erishish uchun tinglovchilar matn, undagi chizmalar, grafiklar, rasmlar bilan tanishishlari, ayrim muammoli masalalarni mustaqil echishlari, mavzu bo'yicha savollarga javob berishlari, test topshiriqlarini bajarishlari lozim.

Modulli o'qitishning ikkinchi bosqichida qo'yilgan maqsadni amalga oshirish rejaları tinglovchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish bilan amalga oshiriladi.

Modulli o'qitishning uchinchi bosqichida tinglovchilar o'zlarining bilim va ko'nikmalarini qay darajada egallaganliklarini baholaydilar.

Modulli o'qitishning to'rtinchi bosqichida o'qituvchi modul dasturiga yakun yasaydi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish jarayonida o'qituvchi kurs tinglovchilariga modulli o'qitishni o'tkazishga oid tegishli tushunchalar berishi, ularning har biri darslik va metodik qo'llanma yoki qo'lyozmaga asoslanib mustaqil ravishda rejadagi fan mavzulari bo'yicha modulli o'qitishning mashq darslarini o'tkazishlari va o'zaro fikr almashishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zamon shiddat bilan o'zgarib borar ekan, ta'lim sohasi ham u bilan barobar o'zgaradi va o'qituvchidan o'z faoliyatini o'zgartirishni talab qiladi. Bugun o'qituvchining asosiy vazifasi faqat ta'lim berishgina emas, balki boshqaruvchilikdan iborat bo'lib, u ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilishi va boshqarishi talab etilmoqda. Aynan modulli ta'lim texnologiyasida o'qituvchi boshqaruvchi, ta'lim olishning tashkilotchisi, tinglovchining yordamchisi sifatida qatnashadi. Shuni e'tirof etish lozimki, "masofaviy ta'lim tizimi" dasturiga ko'ra

kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan keng foydalaniladi.

Jumladan, ushbu dasturga kurs bo'yicha o'qitiladigan fanlar bloki, bu fanlar bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar hajmi, nazorat va konsultasiyalar shakli hamda soatlari ko'rsatiladi. Rejaga ko'ra bu fanlarni tinglovchi modulli o'qitish texnologiyasiga ko'ra, mustaqil ravishda o'qib, o'rganib, olgan bilimi yoki ko'nikma va malakalarini nazoratdan o'tkazadilar.

Ta'lim tizimini mazmunan isloh qilish jarayonida pedagog kadrlar obro' - e'tibori, mas'uliyati va kasb ko'nikmasini oshirish yuzasidan sobitqadamlik bilan davlat siyosati olib borilmoqda. Bu borada o'qituvchi faoliyatini yangilash va innovasiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish asosiy vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish natijasida, innovasion faoliyatga tayyorgarlik darajasining oshishi va darsga eng so'nggi yangiliklar bilan modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish hamda ta'limda yuqori sifat va samaradorlikka erishish mumkin bo'ladi.

## BOB II. TIBBIYOT KASBIGA KIRISH FANIDAN ELEKTRON O‘QUV

### MODULI

#### 2.1. O‘quv fani dasturining qisqacha tavsifi.

#### **"TIBBIYOT KASBIGA KIRISH" MODULIDAN**

#### ***Sillabus***

<b>Modulning to‘liq nomi tibbiyot kasbiga kirish</b>	Modulning to‘liq nomi tibbiyot kasbiga kirish		
<b>Modul kodi: kredit hajmi: 2,0</b>	Modul kodi: kredit hajmi: 2,0	Modul kodi: ECTS kredit hajmi: 2,0	ECTS value:2,0
<b>Ta'lim yo‘nalishi</b>	60911100 – "Xalq tabobati		" 1 bosqich bakalavrlari
<b>Modulning davomiyligi</b>	18 hafta		
<b>O‘quv soatlari xajmi:</b>	Jami soat:	72	
		Shuningdek:	
	ma'ruza	4	
	amaliy mashg‘ulot	50	
	mustaqil ta'lim	18	
<b>O‘quv modulining statusi:</b>	<b>klirik modullarbloki</b>		
<b>OTM nomi, manzili</b>	Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent sh., Farobiy-2		
<b>Kafedra nomi</b>	<b>Xalq tibbiyoti, reabilitologiya va jismoniy tarbiya</b>		
<b>Mazkur kursning o‘qituvchilari haqida ma'lumot</b>	Ma'ruzachilarning F.I.Sh.	E-mail:	
<b>Mashg‘ulot vaqti va joyi</b>	Amaliy mashg‘ulot o‘tkazuvchilarning F.I.Sh	E-mail:	
<b>Modulning mazmuni</b>	Tibbiyot kasbiga kirish moduli bo‘lajak mutaxassisni tayyorlashning ilk bosqichi hisoblanadi va talabalar		

tomonidan bemor bilan bo'layotgan muammolarni aniq tasavvur qilish, bemorlarni parvarish qilish moduli bo'lib hisoblanadi.

**Prerekvizitlar** Anatomiya, fiziologiya, biologiya, kimyo fanlari nazariy qismi hisoblanadi.

**Postrekvizitlar** Tibbiyot kasbiga kirish moduli keyinchalik xalq tabobati mutaxassisni tayyorlash o'quv moddullarga va boshqa klinik moddulariga nazariy zamin bo'ladi

**Modulning maqsadi** Talabalarga xalq tabobati xaqida umumiy tushunchalar berish, ananvi tashislash va davolash usullarini asoalrini o'rgatish, axoli va bemorlar orasida sog'lom turmush tarzi tamoyillari xaqida suxbat olib borish va uni tavsiya qilish, jismoniy faollik xaqida umumiy tushunchalar berish, turli yoshdagi bemorlarni parvarish qilishni, shifokorlarning kasbiy etika va deontologiya tamoyillarini, bemor hamda kasalxona xodimlarining shaxsiy gigiena qoidalarini o'rgatish.

**Modulning vazifalari**

- klinika bo'limlari, ularning ish tartibi va ishni tashkil qilish bilan tanishtirish;
- bemorlarni qabul qilish;
- sog'liqni saqlashni birlamchi tizimida tibbiy faoliyatni tashkil etish;
- aholi salomatligini muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;
- aholi orasida keng tarqalgan o'tkir va surunkali kasalliklar bo'yicha barcha turdagi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiq etish;

- yuqumli kasalliklarni oldini olish va epidemiya, pandemiya sharoitida zarur bo‘lgan chora – tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish; shoshilinch yordam ko‘lami bo‘yicha zarur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lish hamda amaliyotda qo‘llash

**Modul bo‘yicha talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar**

**Talaba tasavvurga ega bo‘lishi kerak:**

1. Aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish, kasalliklar rivojlanishiga sabab bo‘luvchi xavf omillarni aniqlash;
2. Aholi tibbiy nufuzini oshirish, rasional ovqatlanish tamoyillari hamda zararli odatlari bartaraf etish borasida zarur chora – tadbirlarni amalga oshirish;
3. Sog‘liqni saqlash tizimida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

**Talaba bilishi shart:**

1. Davolash va profilaktika muassasalari va tibbiy xujjatlarning turlarini;
2. Kasalxonada xodimlarining shaxsiy gigiena qoidalarini;
3. Shoshilinch holatlarni o‘z vaqtida aniqlash, kasalxonagacha bo‘lgan tez yordam ko‘lamini aniqlash va tibbiy yordam ko‘rsatish, ko‘rsatmaga ko‘ra zarur mutaxassislarga va kasalxonaga yuborish.

**Talaba bajara olishi lozim:**

1. Birlamchi tibbiy muolajalarni o‘tkazishni (termometriya, antropometriya, nafas olish soni, yurak urish sonini aniqlash, arterial qon bosimini o‘lchash);
2. Shoshilinch holatlarni o‘z vaktida aniqlashni, kasalxonagacha bo‘lgan tez yordam ko‘lamini aniqlash va

---

tibbiy yordam ko'rsatishni, ko'rsatmaga ko'ra zarur mutaxassislarga va kasalxonaga yuborishni;

3. Xalq tabobati usullarini sog'lom turmush tarzi tamoyillariga asoslanib tanlay olishni.

4. Oila va alohida aholi guruhlari o'rtasida inson salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashi va xavf omillarini bartaraf qilish.

**Ta'lim berish**

ma'ruza

**usullari**

amaliy mashg'ulotlar.

**Ta'minot**

videofilmlar, multimediyali va o'qituvchi kompyuter dasturlardan, o'qitish metodikasidagi yangi texnologiyalardan, mavzular bo'yicha nazariy bilimlarni so'rashdan foydalaniladi; bakalavrlarning mustaqil ishi, individual va guruhli prezentasiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar.

---

**Fan mavzulari va unga ajratilgan soatlar taqsimoti:**  
**Tibbiyot kasbiga kirish fanidan mashgʻulotlarning mavzular va soatlar**  
**boʻyicha taqsimlanishi**

<b>№</b>	<b>Mavzular nomi</b>	<b>Ma'r uza</b>	<b>Amal. mash gʻ</b>	<b>Must. ta'lim</b>
	1-mavzu. Tibbiyotga kirishning umumiy asoslari. Talabalarni "tibbiyot kasbiga kirish" moduli bilan tanishtirish. Xalq tabobati bilan davolashning an'anaviy va noan'anaviy usullari xaqida umumiy tushunchalar berish.	<b>2</b>		
	2-mavzu. Turli yoshdagi bemorlarni xalq tabobati yoʻli bilan davolashning zamonaviy usullari va umumiy tushunchalari.	<b>2</b>		
1	Tibbiyot kasbiga kirish.		3	1
2	Xalq tabobati umumiy asoslari.		2	1
3	Xalq tabobati an'anaviy usullari.		2	1
4	Xalq tabobati noan'anaviy usullari.		3	2
5	Akupunktura umumiy tushunchasi va uni zamonaviy tibbiyotda tutgan oʻrni.		4	1
6	Akupressura umumiy tushunchasi va uni zamonaviy tibbiyotda tutgan oʻrni.		4	1
7	Fitoterapiya umumiy tushunchasi va uni zamonaviy tibbiyotda tutgan oʻrni.		2	1
8	Girudoterapiya umumiy tushunchasi va uni zamonaviy tibbiyotda tutgan oʻrni.		2	1
9	Apiterapiya umumiy tushunchasi va uni zamonaviy tibbiyotda tutgan oʻrni.		2	1
10	Yurak qon tomir tizimi kasalliklarida xalq tabobati zamonaviy usullari bilan davolashning umumiy tushunchalari.		4	1
11	Nafas tizimi kasalliklarida xalq tabobati zamonaviy usullari bilan davolashning umumiy tushunchalari.		4	1
12	Periferik asab tizimi kasalliklarida xalq tabobati zamonaviy usullari bilan davolashning umumiy tushunchalari.		4	1
13	Ovqat xazm qilish tizimi kasalliklarida xalq tabobati zamonaviy usullari bilan davolashning umumiy tushunchalari.		3	1
14	Tayanch harakat apparati tizimi kasalliklarida xalq tabobati zamonaviy usullari bilan davolashning umumiy tushunchalari.		3	1
15	Siydik yoʻllari tizimi kasalliklarida xalq tabobati zamonaviy usullari bilan davolashning umumiy tushunchalari.		3	1
16	Jinsiy aʼzolar tizimi kasalliklarida xalq tabobati zamonaviy usullari bilan davolashning umumiy tushunchalari.		3	1
17	Pediatriya kasalliklarida xalq tabobati zamonaviy usullari bilan davolashning umumiy tushunchalari.		3	1
	<b>жами</b>	<b>4</b>	<b>50</b>	<b>18</b>

## Talabalar bilimini baholash tizimi:

t/r	Nazorat turidagi topshiriqlarning nomlanishi	Maksimal yig'ish mumkin bo'lgan ball	JN va TMI ballar taqsimoti			
<b>I. Joriy nazoratdagi ballar taqsimoti</b>		<b>70ball</b>	Ball	nazariy qism	amaliy qism	TMI
<i>Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda</i>		Maksimal ball	96-100	50-48	35-40	9-10
<b>1.</b>	Talabaning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardagi faolligi va o'zlashtirish darajasi, daftarlarning yuritilishi va holati. Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi (Referat, taqdimot va boshqa turdagi mustaqil ta'lim topshiriqlari)	40	91-95	46-48	36-38	9
			86-90	43-45	34-36	9
			81-85	41-42	32-34	8-9
<b>2.</b>	Amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam bajarishi	30	76-80	38-40	31-32	7-8
			71-75	36-38	28-30	7
			66-70	33-35	26-28	7
			61-65	31-33	24-26	6
			55-60	28-30	22-24	5-6
			31-54	15-27	12-22	4-5
			0-30	0-18	0-12	0
<b>II. Yakuniy nazorat</b>		<b>30 ball</b>	Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar tugaganidan keyin Yan jadval asosida olinadi			
<b>Jami:</b>		<b>100 ball</b>				




## Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

<b>Asosiy adabiyotlar:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xalmatova B.T., Oxunov A.O., Karimov M.Sh. va boshq. Tibbiyot kasbiga kirish, Darslik. Toshkent. 2019 u.</li> <li>2. Xalmatova B.T., Oxunov A.O., Karimov M.Sh. i dr. Vvedenie v kliniku, Uchebnik. Tashkent. 2019 g.</li> <li>3. Oxunov A.O. Osnovi obtshego uxoda za xirurgicheskimi bolnimi. Elektron darslik - Tashkent. 2014 g.</li> <li>4. Zokirxodjaev Sh.Ya., Solixov M.U. Shifokor va bemor. O‘quv qo‘llanma -Toshkent. 2016 y.</li> <li>5. A.H. O‘smonxo‘jaev, N.Z. Muhamedjanov, M.S. Azizov, F.N. Ibragimov Ibn Sino islohlari qomusi, Avisenna entsiklopediya terminologiy, "yangi asr avlodi", Toshkent 2013y, 472 b.</li> <li>6. A. Usmonxodjaev, V.E. Avakov, E.I. Basitxanova, Bolshoy medisinskiy etimologicheskiy slovar, Tashkent, 2010, "Nosir", 328 b.</li> <li>7. A. Usmanxodjaev, E.I. Basitxanova, O‘.P. Pratov, A.D. Djabbarov O‘zbekistonda o‘sadigan shifobaxsh o‘simliklarning etimologik zamonaviy entsiklopediyasi, Toshkent 2018 y, yangi asr avlodi, 544b.</li> <li>8. Song Yong Il, Isomiddinov Z. Koreys Tibbiyotiga Kirish. Korea, Shinjin Communications, 2019.</li> </ol>
<b>Qo‘shimcha adabiyotlar:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Babadjanov B.D., Oxunov A.O. Ponyatie o xirurgii. Organizatsiya Raboti xirurgicheskogo otdeleniya, Metodicheskaya rekomendatsiya stsensariyev provedeniya prakticheskix zanyatix s ispolzovaniem interaktivnix metodov obucheniya. Tashkent. 2012 g.</li> <li>2. Bolalarga stasionar yordam kursatish. Metodik qo‘llanma. (O‘zssv №225 buyrugi, 2013 y.)</li> <li>3. Daminov T.O., Xalmatova B.T., Boboeva U.R. Bolalar kasalliklari, darslik. Toshkent.2013 y.</li> <li>4. Daminov T.O., Xalmatova B.T., Boboeva U.R. Detskie bolezni, Uchebnik. Tashkent. 2013 g.</li> <li>5. Qodirov I. Hamshiralik ishi asoslari, darslik. Toshkent. 2015 y.</li> <li>6. Karimjonov I.A. Pediatriya va Neonatologiyada hamshiralik ishi, darslik. Toshkent. 2012 y.</li> <li>7. Abdulaziz Saidnuriddin "O‘zbek xalq tabobati ugiltari", Toshkent, "fan", 2007</li> </ol>


	<p>8. Shtefan Palosh "Kitayskoe iskusstvo tselitelstva. Istoriya i praktika vrachevaniya ot drevnosti do nashix dney". Izd-vo: Tsentrpoligraf, 2003g.</p> <p>9. Jaklin Yang "sekreti Vostochnoy medisini". Izd-vo: kontent, 2007g., 177s.</p> <p>10. Szen Tsinnan, Lyu Daosin "Terapevticheskie uprajneniya kitayskoy medisini". Izdatelstva: Feniks, Neoglori, 2008, 480c.</p> <p>11. Liang Liu Essentials of Chinese Medicine Springer, 2011, 1546 pages</p> <p>12. Sokolov I.I., Stepanov V.V. Narodnaya medisina - Nauka i tradisionnie znaniya., Sankt-Peterburg, 2001.</p>
<p><b>Internet saytlari:</b></p>	<p>1. <a href="http://www.minzdrav.uz">www.minzdrav.uz</a>;</p> <p>2. <a href="http://www.tma.uz">www.tma.uz</a></p> <p>3. <a href="http://www.ZiyonET">www.ZiyonET</a>;</p> <p>4. <a href="http://www.acpunctur.ru">www.acpunctur.ru</a></p> <p>5. <a href="http://www.igli.ru">www.igli.ru</a></p> <p>6. <a href="http://www.doktor.ru">www.doktor.ru</a>,</p> <p>7. <a href="http://www.medinfo.home.ml.org">www.medinfo. home.ml.org</a></p> <p>8. <a href="http://www.medeffect.ru">www.medeffect.ru</a></p> <p>9. <a href="http://www.acupuncture.com">www.acupuncture.com</a></p>

## 2.2. II - kurs xalq tabobati fakulteti Tibbiyot kasbiga kirish kursi modul bo'yicha fan yuzasidan o'quv resurs va elementalri joylashish.


Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa Moodle @TTA platformasi orqali amalga oshiriladi.



